

O'QUVCHI YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH MASALALARI

Jumayeva Marhabo Shaymardon qizi

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumaniga qarashli

100- umumiy o'rta ta'lim maktabining amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish masalalari, kasb tanlash jarayonining psixologik-pedagogik asoslari hamda o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash yo'llari yoritiladi. Shuningdek, maktab, oila va psixolog hamkorligining kasbiy yo'naltirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, kasb tanlash, o'quvchi, psixologik yo'naltirish, qobiliyat, qiziqish, motivatsiya, maktab psixologi.

KIRISH

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Kasb tanlash inson hayotining kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli bu jarayonga psixologik va pedagogik jihatdan to'g'ri yondashish zarur. Kasbga yo'naltirish o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini aniqlash kasb tanlash jarayonining asosiy bosqichi hisoblanadi.

Psixologik jihatdan kasb tanlash o'smirlik davrida shakllana boshlaydi. Bu davrda o'quvchi o'z kelajagi haqida o'ylaydi va turli kasblarga nisbatan qiziqish bildiradi. Maktab psixologi kasbga yo'naltirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Psixolog testlar, suhbatlar va kuzatuvlar orqali o'quvchining kasbiy moyilligini aniqlaydi.

O'qituvchilar ham kasb tanlashda o'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Ularning fanlarga bo'lgan qiziqishi va o'quv faoliyatidagi faolligi kasbiy yo'nalishni belgilashga yordam beradi. Oila ham kasb tanlash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning qo'llab-quvvatlashi va to'g'ri yo'naltirishi o'quvchining mustaqil qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Kasb-hunarlar haqida to'liq ma'lumot berish o'quvchilarning to'g'ri tanlov qilishiga yordam beradi. Zamonaviy kasblar va mehnat bozori talablari haqida tushuncha berish muhimdir. Motivatsiya kasb tanlash jarayonida muhim psixologik omil hisoblanadi. O'quvchida maqsad va intilish bo'lsa, u o'ziga mos kasbni ongli ravishda tanlaydi. Treninglar, kasbga yo'naltirish tadbirlari va uchrashuvlar o'quvchilarning kasbiy tasavvurlarini kengaytiradi. Amaliy tajriba ularning qaror

qabul qilishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Kasb-hunarga yo'naltirish shunchaki ta'limiy jarayon emas, balki mamlakatning kadrlar salohiyatini va iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi poydevordir. Shunday ekan yoshlar ongiga milliy ruhda zamonaviy, istiqbolli kasblarga qiziqishni singdirish, Oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarda esa o'z sohasiga bo'lgan mas'uliyat hissini oshirish ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning asosiy vazifasi ekanligini unutmagan holda, bu miqyosda belgilangan tartiblarda ishlar olib borish, yangiliklar kiritish darkor. Kasbga yo'naltirish va shaxsiy qiziqishlarni aniqlashda psixologiya fanida bir necha o'n yilliklar davomida sinalgan, ilmiy asoslangan klassik va zamonaviy metodikalar qo'llaniladi. Ushbu metodikalar insonning temperamenti, qobiliyati va qadriyatlarini tahlil qilib, unga eng mos keladigan faoliyat sohasini ko'rsatib beradi.

Bularga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: Y.A.Klimovning "Differensial-diagnostik so'rovnomasi"; J.Xollandning "Kasbiy shaxs tipi" testi. Bu test insonning psixologik tipini (realistik, intellektual, ijtimoiy, konvensional, tashabbuskor yoki artistik) aniqlab, unga mos ish muhitini tavsiya etadi; Golomshtokning "Qiziqishlar xaritasi" metodi 174 ta savoldan iborat bo'lib, o'quvchining fanlarga va faoliyat turlariga bo'lgan barqaror qiziqishlarini chuqur tahlil qiladi; E.Rogovning "Kasbiy motivatsiya" testi ham mavjud bo'lib, unda insonni nima ko'proq ruhlantirishini aniqlaydi: moddiy manfaatmi, ijtimoiy mavqemi yoki ijodiy jarayonmi?

Bu borada O'zbekistonlik psixolog olimlar ham jahon metodikalarini adaptatsiya qilishgan, milliy mentalitet, ijtimoiy-iqtisodiy muhit va o'zbek oilasining qadriyatlarini hisobga olgan holda o'zlarining ilmiy maktablarini yaratganlar. Masalan, professor M.G.Davletshin O'zbekistonda kasbiy psixologiya va qobiliyatlar diagnostikasiga asos solgan. Akademik Ergash G'oziyev tomonidan shaxsning mustaqil fikrlashi va kasbiy kamoloti bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan.

Professor Vasila Karimova esa asosan o'zbek oilasidagi kasb tanlash dinamikasini o'rgangan. Bunday misollarni yana keltirishimiz mumkin. Olimlarning fikr-mulohaza, tajribalari asosida yuzaga kelgan nazariyalar, usullarni biz psixologlar mukammal o'rganishimiz, faoliyatimizda qo'llashimiz kerak. Biz ham bugungi kun talablariga aniq javob beradigan, zamonaviylashgan va texnologiyalar asosida olib boriladigan usullarni yanada ko'proq yaratishimiz, laboratoriya sharoitlarida va tabiiy muhitda qo'llab ko'rib, ilmiy asoslashimiz, hamda psixologik faoliyat doirasida tadbir qilishimiz lozim.

Albatta, maktabni bitirgach o'quvchilar endi Oliy ta'limga, texnikumlarga, hunar o'rganishga yo'naladilar. Oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan talabalarimizning ham mutaxassislik sohasi doirasidagi ilmlarini mustahkamlash, qiziqishlarining so'nib qo'lishini oldini olish, jamiyatda va jamoaviy ishlarda faol bo'lishlarini ta'minlash, turli ilmiy g'oyalar ustida bosh qotirishda, kelgusidagi ilmiy ishlariga talabalik

davridanoq bilim to'plashlarida, hayotlari va karyeralarini oldindan rejalashtirish, maqsadlari yo'lida ildam qadamlar tashlashlari, xalqaro maydonlarda o'zlarini ko'rsatishlariga professor o'qituvchilar, psixologlar yordam qo'lini cho'zishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ho'sh, keling endi bu borada psixologik bilimlarning ahamiyati qanchalik dolzarbligini ko'rib chiqaylik! Zamonaviy psixologiya yoshlarning nafaqat qiziqishlarini, balki ularning temperamenti, kognitiv qobiliyatlari va psixotipini hisobga olgan holda kasb tanlashga va tanlagan kasblarida muvaffaqiyat qozonishlarida yordam beradi. Bu kelajakda mutaxassisning o'z ishidan qoniqmaslik xavfini kamaytiradi. Statistika shuni ko'rsatadiki, psixologik diagnostikadan o'tib kasb tanlagan yoshlarning o'z sohasida muvaffaqiyat qozonish ehtimoli 3 barobar yuqori. Bo'lajak mutaxassisning faqat nazariy bilimga ega bo'lishi yetarli emas. Psixologik treninglar o'quvchi yoshlarda va talabalarda jamoaviy ishlash, emotsional intellekt va konfliktlarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa mehnat bozorida eng talabgir bo'lgan "hamkorlik madaniyati"ni yuzaga keltiradi. Intensiv axborot oqimi davrida yosh mutaxassislarda stressga chidamlilik shakllanishi muhim hisoblanadi. Psixologik bilimlar talabalarga murakkab vaziyatlarda kreativ yechim topish va krizis davrida o'zini yo'qotib qo'ymaslik imkonini beradi.

To'g'ri, jamiyatda bartaraf etilishi kerak bo'lgan muammolar ko'p, biroq bir Davlat, bir xalq bo'lib bugungi zamonaviy, ilm-fan taraqqiy etgan dunyoda Vatanimiz O'zbekistonni yuksaltirmoqdamiz! Faxrlanishga arzigulik muvaffaqiyatlarimiz juda ko'p. Muammolarni ham birgalikda birlashib, biz yoshlar qo'lni qo'lga berib yechimini izlaymiz, hamda bartaraf qilamiz. Biz bot-bot eshitib keladigan "O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida!" so'zlari ayni haqiqat. Bu so'zlar qisqa, ammo unda juda katta ma'no bor. Yoshlar kelajak-poydevori. Bugungi kunda O'zbekistonda 14-30 yosh oralig'idagi yoshlar soni 9,6 milliondan oshdi, bu esa jami aholining qariyb 26 foizini tashkil etadi. Hozirda mamlakatda 1 milliondan ortiq talaba tahsil olmoqda, bu esa kadrlar sifatining keskin oshishiga xizmat qilmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, iqtisodiyotda band bo'lgan yoshlar soni 5,5 milliondan ortiqni tashkil etadi[11]. Yoshlarning raqamli iqtisodiyotdagi ulushi keskin o'sib bormoqda. Xususan, "Bir million o'zbek dasturchisi" loyihasi doirasida 1,2 milliondan ortiq yoshlar IT yo'nalishida tahsil olgan[10]. Har yili yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar hisobiga 200 mingdan ortiq yoshlar o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yimoqda. Bu ko'rsatkichlar soni yildan yilga o'sib kelmoqda. Sonlar ulushini yanada oshirish, yoshlarni kelajakda o'z o'rinlarini topishda yordam berish, ularni qo'llab-quvvatlash doirasida yanada keng islohotlarni yo'lga qo'yish davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Inson qalbi betakror bir olam bo'lsa, uning kamoloti va to'g'ri yo'lni topishi uchun psixologik bilimlar go'yo bir nurli mayoqdir. O'quvchi yoshlarni kasb-hunar

ummoniga yo'naltirish, talabaning bo'lajak kasbi bilan ruhan uyg'unlashib, o'z sohasining chinakam fidoyisiga aylanishi shunchaki ta'limiy jarayon emas, balki nozik ruhiy muhandislikdir. Psixologik ko'nikmalar yoshlar o'rtasida o'zaro ishonch ko'priklarini quradi, bu esa ularni nafaqat bilimli mutaxassis, balki jamoada ishlashni biladigan, emotsional intellekti yuqori bo'lgan zamon qahramonlariga aylantiradi. Bugungi kunning dolzarb haqiqati shundaki, yoshlar qalbida o'z kasbiga nisbatan muhabbat uyg'otish va ularni ruhiy barqarorlik asosida tarbiyalash millatning ertangi intellektual qudratini belgilovchi eng muqaddas vazifadir. Ruhiyati sog'lom, o'z iqtidorini anglagan va hamkorlik ruhida shakllangan kadrgina yurt poydevorini mustahkam tutib tura oladi.

Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir! Bundan ko'rinib turibdiki biz yoshlar hayot yo'limizda kerak bo'ladigan barcha bilimlarni o'qib-o'rganishimiz shart. Shundagina kelajakda, o'z kasbiy faoliyatimiz davomida qoqilmay, oqsoqlanmay, dadil ishlay olamiz, yangiliklar yaratamiz, kitoblar yozamiz, kelajak avlodga yaxshi sharoitlar barpo qilamiz. Eng muhimi insonparvarlik ilmlaridir. Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Ta'lim va tarbiya qushning ikki qanoti demakdir." Olingan bilimlar yaxshi inson bo'lish yo'lida xizmat qilishi lozim. Jamiyatimiz rivoji, baxtli kelajagimiz, xotirjam hayot yo'lini yaratish o'zimizning qo'limizda. Ishonamanki, bunga xar bir o'zbek yigit-qizi qodir!

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish murakkab va mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. Maktab, oila va psixolog hamkorligi orqali o'quvchilarning qobiliyatiga mos kasb tanlashga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni.
4. Yevgeniy Aleksandrovich Klimov. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. – Moskva: Akademiya, 2004.
5. John Holland. Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. – Odessa, FL: Psychological Assessment Resources, 1997.
6. Yevgeniy Rogov. Psixologiya professionalnoy deyatelnosti. – Moskva: VLADOS, 2001.
7. Ergash G'oziyev. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
8. M.G. Davletshin. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
9. Vasila Karimova. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.